

OILADA NUTQIDA TO'LA RIVOJLANMAGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-LOGOPEDIK ISHLAR.

NamDPI o'qituvchisi:

Abdulhamidova Gulnoza Nasriddin qizi

NamDPI 3-kurs o'quvchisi:

Valnazarova Shaxrizoda Otaboy qizi

Annotatsiya; Bugungi kunda dunyodagi barcha nutqida muammosi bo'lgan turli xil yoshdagi bolalarning hayotida turli xil cheklovlarni keltirib chiqaradigan nutq muammolari haqida tanishib chiqish, ular bilan qanday korreksion ishlar olib borilishi mumkinligi haqida o'rganish va ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Nutq kamchiliklari nima? Qanday vaziyatlarda kelib chiqishi mumkin va bunga nimalar sabab bo'ladi? Shu va shunga o'xshagan turli xil savollarga javob topishingiz mumkin. Bu maqolani yozilishidan asosiy maqsad ham nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar oilada qanday yordamga muhtoj bo'lishini o'rganish va kengroq yoritib berishdan iborat.

KALIT SO'Z; nutq, nutq nuqsonlari ,korreksiya ,logopedik jarayon,inklyuziv ta'lim ,reabilitatsiya ,alohida yordamga muxtoj bolalar psixologiyasi .

Аннотация: Сегодня все дети разного возраста с нарушениями речи во всем мире могут узнать о нарушениях речи, которые вызывают различные ограничения в их жизни, и о том, какие корректирующие меры можно предпринять. Что такое нарушения речи? В каких ситуациях они могут возникать? И что их вызывает? Вы можете найти ответы на эти и другие подобные вопросы. Главная цель написания этой статьи — изучить и пролить свет на то, какая помощь необходима детям с нарушениями речи в семье.

KALIT SO'Z;ruscha

Abstract: Today, all children of different ages with speech disorders in the world can learn about speech disorders that cause various limitations in their lives, and

learn about what corrective measures can be taken. What are speech disorders? In what situations can they occur? and what causes them? You can find answers to these and other similar questions. The main purpose of writing this article is to study and shed more light on what kind of help children with speech disorders need in the family.

KALIT SO‘Z;ruscha

KIRISH . Nutq kamchiliklari bo‘lgan bolalar ham boshqa sog‘lom tengdoshlari bilan bir qatorda teng huquqli bo‘lib o‘qishi, o‘rganishi va yashashga haqli. Buni yanada mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Har bir bola ta‘lim olish huquqiga ega” ,”Nogironligi yoki rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun davlat himoyasi kafolatlanadi “

“Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun 2020-yil yangi tahrirda ham “Maxsus ta‘lim shakllari joriy etilgan “ va keng tarqalayotgan turi “Inklyuziv ta‘lim yani maxsus ehtiyojli bolalarni oddiy maktabga jalb qilish va barcha nutq kamchiliklari va nuqsonli bolalar logoped yordamidan foydalanish huquqiga ega .

Bundan tashqari “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risidagi Qonunida ham “Har bir bola sog‘lom rivojlanish huquqiga ega” Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun, bepul tibbiy yordam ,pedagog va psixologik yordam kabi bir qator yengilliklar mavjud .

“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” Qonunda nutq buzulishlari ham nogironlik katigoriyasiga kirishi mumkin .

Maxsus maktablar va logopedik xizmatlardan foydalanish huquqi barcha bolalarga tegishli .

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning PF-5270 farmonida ham Maxsus ehtiyojli bolalar uchun ham keng imkoniyatlar yaratib berish alohida ta‘kidlab o‘tilgan va PF-5712 Prezident farmonida 2030-yilgacha ta‘limni rivojlantirish , Inklyuziv ta‘limni kengaytirish , haqida keng tarzda boyitib berilgan .

PQ-2707 Qarorida maxsus maktab va bog‘chalarni rivojlantirish ,Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus dasturlar yaratish va hayotga tatbiq qilish .

VMQ-638-son qarorida “Inklyuziv ta‘limni tashkil etish tarkiblari “ va

“Logopedik ishlarni yo’lga qo’yish “ to’g’risida qarorlar qabul qilingan .

VMQ-187-son qaror PMPK psixologik- medik-pedagogik-komissiya faoliyatini yo’lga qo’yish va bolalarning nutqiy muammosini aniqlash va yo’naltirish to’g’risida turli qarorlarning qabul qilinishi.

Bundan tashqari 1989-yilgi “Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyada BMT tomonidan qabul qilingan eng muhim hujjat .

Har bir bolaning ta’lim olish huquqi ,sog’lom rivojlanish huquqi maxsus yordam olish va undan foydalanish huquqlari qonun bilan kafolatlangan . Nutqida nuqsoni bo’lgan bolalar uchun : maxsus ta’lim , logoped yordami, va boshqa qator yengilliklar bilan ta’minlangan . 2006-yildagi Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiyada “Nogironlar huquqlari to’g’risidagi konvensiyada “Nogironligi bo’lgan bolalar uchun asosiy xalqaro hujjat hisoblanadi .

Buning asosiy tamoyillari :Inklyuziv ta’lim , teng imkoniyatlar , diskriminatsiyasiz muhit.

Ta’limga oid xalqaro hujjatlarda ham masalan “ Salamanka” deklaratsiyasida Inklyuziv ta’limning asosiy hujjati . Har bir bola oddiy maktabda o’qish huquqiga ega, shu va shunga o’xshagan qator xalqaro hujjatlarda nuqsonli bolalar huquqlari himoya qilinadi .

Nutq rivojlanmaganining turli xil sabablari bo’lishi mumkin. Masalan biologik omillar bunda bolalar miya faoliyatining buzulishi ya’ni nerv sistemasidagi turli nuqsonlar kuzatilishi mumkin va tug’ruq paytidagi ko’ngilsiz voqealar . Tug’ruq jarayoni ona va bola uchun bir muncha xavfli jarayon bo’lib nafasning yetishmasligi ya’ni asfiksiya bo’lganda , bo’g’ilib yoki bosh miyaning qisilib qolishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin .

Psixologik omillar : onaning stressli homiladorlik paytini va bolaning e’tiborsiz qolishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin .

Ona organizmining doimiy stressda yurishi bola organizmiga ham ta’sir etadi. Buning natijasida bolalarda artikulyatsion nutq a’zolari yaxshi rivojlanmaydi .

Bolalar nutqi rivojlanadigan davrda ya'ni 1 yoshdan 5, 6 yoshgacha e'tiborsiz qoldirilishi mumkin. Chunki nutq taqlid asosida rivojlanadigan jarayon bo'lib kattalar nutqi asosida bolalarning nutqi rivojlanadi .

Aynan kerakli davrda bola e'tiborsiz qoldirilishi nutqning turli darajadagi nuqsonlarga olib keladi . Ijtimoiy omillar bu bolaning atrofdagi odamlar bilan ko'proq bog'liq bo'ladi . Bunda bola ota-onasi va boshqa atrofdagi odamlar bilan kam yoki umuman muloqot qilmasligi hisoblanadi .

Nutqning nuqsonli bo'lishiga boladagi turli kamchiliklar ham sabab bo'lishi mumkin . Eshitishdagi muammolar bolaning eshitish darajasi past bo'lsa nutqi ham nuqsonli rivojlanadi bu mujassam nuqsonni keltirib chiqaradi . Nutqning to'liq rivojlanishida oilaning roli juda muhim. Chunki tepada ta'kidlaganimizdek nutq tug'ma jarayon emas u taqlid natijasida rivojlanadi. Ota-onaning nutqi bolaning nutqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola bilan olib boriladigan doimiy muloqot nutqning tezlashishiga yordam beradi .Mehr va oilaning qo'llab quvvatlashi bola psixologiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi . Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga asosiy yordamni logoped pedagoglar ko'rsatishadi. Bu eng muhim va asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi .Korreksiya bu yumshatish , tuzatish degan ma'noni anglatadi .Logopedlar har xil nuqsonli bolalarni korreksiya qilishda muhim rol o'ynaydi .

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logoped tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish ,tovushlarni farqlash va artikulyatsion mashqlarni bajarib lab va til harakatini me'yorga keltirishga yordam beradi.

Lug'at boyligini oshirish har xil oddiy harakatlar va predmetlarni nomlash ularni to'g'ri talaffuz qilish . Boshlang'ich nutqni rivojlantirish , savol -javob qilish, kichik-kichik hikoyalar tuzish atrofdagilar bilan ko'proq suhbatlashish . Eshitish vs tushunish idrokini rivojlantirish . Bolalar nutqining rivojlanishi uchun asosiy jarayonlardan biri bu mayda qo'l motorikasini rivojlantirish . Qo'l va barmoq mashqlaridan ko'proq foydalanish .

Uy sharoitida nuqsonli bolalar bilan ko'proq o'yin orqali va ertak o'qish orqali nutqini rivojlantirish mumkin . Birgalikda turli xil rasmlar chizish , qo'shiq va

she'rlarni yod olish . Bu mashg'ulotlarni qiziqarli va majburlashlarsiz o'tkazish bolalarni yanada keng fikrlashga yordam beradi. Nutqida har qanday og'ish bo'lgan bolalarning ota -onalari uchun quyidagi maslahatlarni berib o'tamiz . Nuqsonli bolalarni kamsitmang, nuqsonni tanqid qilmang , ko'pchilik yonida urushmang , siz unga to'g'ri nutq bilan muomala qiling , sabrli bo'ling .

Logoped bilan hamkorlikda bo'ling faqat logopedga tashlab qo'ymang mashg'ulotlarda doim qatnashing ,topshiriqlarni birgalikda bajaring .telefon va televizordan o'zingiz va bolangizni uzoqlashtiring .

Ko'proq vaqtingizni bolangiz bilan birga o'tkazing .Farzandingiz bilan do'stona munosabatda bo'ling.

Oilada olib boriladigan korreksion logopedik ishlar bolaning nutqini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega . To'g'ri tashkil etilgan mashg'ulotlar ota-onaning faol ishtiroki va mutaxassis bilan hamkorlik natijasida nutq nuqsonini samarali bartaraf etishi mumkin . Farzandigizning kelajagi sizning qo'lingizda , farzandingizga bee'tibor bo'lmang .

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-sonli Farmoni.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021-yildagi 638-son
- 3) Logopediya: darslik M.Y.Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – o'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti, 2007
- 4) Zarifboy Ibodullayev, nevropatolog. Professor.«Asab va ruhiyat» kitobi.Asab.uz
- 5) EDUCATION, S. I. I. I. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA NUTQIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.

6) Abdulxamidova, G. N. (2023). ESHITISHDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA KORREKSION PEDAGOGIK ISH MAZMUNI VA AHAMIYATI. Экономика и социум, (12 (115)-1), 42-46.

7) ABDULKHAMIDOVA, G. DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVE CITIZEN COMPETENCES IN HEARING DISABLED STUDENTS. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 15-16.